

UNLI VA UNDOSH TOVUSHLARNI O'RGANISHDA LEKSIK MASHQLARNI TASHKIL ETISH

**Andijon davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim 3- bosqich talabasi
Xoshimova Feruza Adaxamovna.**

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda unli va undosh tovushlarni o'rgatishda leksik mashqlarni tashkil etishning nazariy-metodik asoslari, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga xizmat qiluvchi leksik mashqlarni tashkil etish usullari yoritiladi.

Kalit so'zlar: fonetika, unli tovush, undosh tovush, leksik mashq, ta'lim islohoti, savodxonlik, metodika.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы организации лексических упражнений при обучении гласным и согласным звукам в начальных классах, а также методы организации лексических упражнений, направленных на расширение словарного запаса учащихся.

Ключевые слова: фонетика, гласные, согласные, лексические упражнения, реформа образования, грамотность, методология.

Abstract: This article discusses the theoretical and methodological foundations of organizing lexical exercises in teaching vowels and consonants in primary grades, as well as methods for organizing lexical exercises that serve to increase students' vocabulary.

Keywords: phonetics, vowel, consonant, lexical exercise, educational reform, literacy, methodology.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, yosh avlodni intellektual salohiyatli kadr etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tashabbusi bilan qabul qilingan ta'lim sohasidagi qaror va farmonlar mazmuniga tayangan holda

ishlab chiqildi. Jumladan, Ta'lim to'g'risida Qonun hamda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarda ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, o'qitish metodikasini takomillashtirish va o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish masalalari mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi." Biz uchinchi Renessans poydevorini barpo etishni o'z oldimizga strategik vazifa qilib qo'ygan ekanmiz, buning uchun avvalo yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar Navoiy va Boburiylarni tarbiyalab beradigon muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak". Ushbu ulug'vor maqsadga erishishning asosi esa ona tilini mukammal o'rganishdan boshlanadi. Ona tili darslarida tovushlar tizimini o'rganish (unli va undoshlar) o'quvchining savodxonlik darajasini belgilab beruvchi poydevordir. Leksik mashqlarning nazariy asoslari Fonetik va leksikologiya bo'limlari biri-biri bilan uzviy bog'liq. Tovush o'zgarishi so'z ma'nosining o'zgarishiga olib kelishi o'quvchida so'zga nisbatan sezgirlikni (Filologik instinkt) uyg'otadi.

Leksik mashqlar o'quvchining nafaqat nutqini, balki mantiqiy tafakkurini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga fonetik o'zgarishlarni (tovush almashishi, tushishi, orttirilishi) tushunishga yordam beradi. Mashqlarni tashkil etish metodikasi Ona tili darslarida unli va undoshlarni o'rganish jarayonida quyidagi leksik mashq turlari samarali hisoblanadi:

Fonetik-semantik tahlil mashqlari: Bu mashqda o'quvchilar birgina tovushning o'zgarishi so'zning butun leksik ma'nosini yangilashini ko'radilar. Misol: Tol (daraxt)-Xol (belgi)-Yol (otning yoli).

Bunda o'quvchi undosh tovushlarni farqlash barobarida lug'atidagi so'zlar zahirasini tahlil qiladi.

Paronimlar-talaffuzi yoki yozilishi o'xshash, ammo ma'nosi turlicha bo'lgan so'zlar. O'quvchilarda nutq aniqligi va savodxonlikni shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Paronimlarni to'g'ri farqlash nutq madaniyatini rivojlantiradi, noto'g'ri so'z qo'llashning oldini oladi hamda leksik kompetensiyani mustahkamlaydi. Shu sababli

paronimlarni o'rgatishda maxsus leksik mashqlar tizimidan foydalanish ilmiy metodik jihatdan samarali hisoblanadi.

Paronimlarning asosiy belgilari:

1. Fanetik jihatdan o'xshashlik mavjud bo'ladi.
2. Ma'no jihatdan farq qiladi.
3. Nutqda chalkash qo'llanish ehtimoli yuqori.
4. Ko'pincha bir xil so'z turkumiga mansub bo'ladi.

Ma'no farqlovchi tovush farqi:

Biz XXI asrda yashayapmiz.

Bu yozuvchining yangi asari juda qiziqarli ekan.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarga grammatik tushunchalarni o'rgatib borishning maqsad va vazifalari. Boshlang'ich sinflarda morfologiyadan "ot", "sifat", "son", "fe'l", "olmosh" tushunchalarini sintaksisdan "gap", "ega", "kesim", "ikkinchi darajali bo'lak", "uyushiq bo'lak", "undalma" tushunchalarini; so'z yasalişidan "o'zak", "qo'shimcha", "o'zakdosh so'zlar" kabi tushunchalarni shakllantirish ustida ish olib boriladi. O'qituvchi tushunchalarni shakllantirish jarayonini boshqarish, o'quvchilarning aqliy faoliyatini to'g'ri tashkil etish uchun u tushuncha nimaligini, tushunchani bilib olish jarayonining xususiyatlarini, tushunchani o'zlashtirish qanday sharoitda natijaliroq bo'lishini ko'z oldiga keltirishi lozim. Tushuncha atrof – muhitdagi predmet va hodisalarning muhim belgilari va o'zaro aloqadorligi aks ettirilgan tafakkur formasini tasvirlab ko'rsatadi.

O'zbek tilida unli tovushlar (a,o,u,I,e,o') va undosh tovushlar (h-x, q-k, j va boshqalar) o'qitishda leksik mashqlar orqali o'quvchilarning nutq apparatini takomillashtirish, mintaqaviy lahjalarning ta'sirini bartaraf etish va yozuv va talaffuz o'rtasidagi farqlarni tushuntirish mumkin. Leksik mashqlar orqali o'quvchilar tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganib, nutq xatolarini 30-40% ga kamaytirish mumkin, chunki takrorlash orqali qisqa muddatli xotiraga o'tishi ta'minlanadi. Leksik mashqlar bu jarayonda muhimo'rin tutadi, chunki ular tovush- so'z- ma'no bog'liqligini mustahkamlaydi.



11-mashq. O'qing. Nuqtalar o'rniga *x* yoki *h* harflaridan mosini qo'yib, so'zlarni to'ldiring.

1. Odil sho... shu zahoti yolg'onchini tutib kelishlarini buyurdi.
2. Mevalar pishib yetilganidan daraxt sho...lari egilib qolgandi.
3. Yuzining o'ng tomonida kichkina, o'ziga yarashib turadigan ...oli bor edi.
4. Alisher bu ...oldan uyaliq qizarib ketdi.



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga so'zlarni leksik ma'nosi deb emas sodda tilda tushuntirish muhim . Ularga o'zbek tilidagi ayrim so'zlar bir xil eshitiladi, lekin ma'nosi ikki xil bo'lgan so'zlar .

Masalan: shox – daraxtning shoxi ; shoh – podshoh .

She'r- kitoblarda qofiyadosh qilib yozilgan ; sher- yirtqich hayvonlar

Xol- inson yuzidagi qora nuqta ; hol – holat ,ahvol

Ra'no – gul nomi ; Rano –qizlar ismi

Da'vo- talab ,iddao; davo- shifo

Shunday mashqlar bilan o'quvchilarga tushuntirish va bu mashqlarni ko'rgazmalar bilan boyitish mavzuni tushunishlariga yordam beradi.

O'quvchilarning bilimni o'zlashtirganliklarini tekshirish uchun savollar berib javoblari bergan o'quvchilarga rag'batlantirish berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilarga mavzu yuzasidan mustaqil gap tuzish vazifasini berish va ularni tekshirish orqali mavzuni o'zlashtirganliklarini aniqlash mumkin.

Ilmiy asos: fonetika, fonologiya va leksikologiya o'zaro bog'liqligi.

Leksikologiya – so'zlarning ma'nosini va tuzilishini o'rganadi.

Shuning uchun unli va undosh tovushlarni o'rganish leksik mashqlar bilan birgalikda olib borilganda ,o'quvchi nafaqat tovushni eshitadi va talaffuz qiladi , balki uni so'zda ,ma'noda , gapda qo'llay oladi.

Unli va undosh tovushlarning fonetik xususiyatlari.

Unli tovushlar :

Havo oqimi og'iz bo'shlig'idan hech qanday to'siqsiz o'tadi.

So'zlar orasida bo'g'in hosil qiladi.

O'zbek tilida 6ta unli tovush mavjud:a,e,I,o,u,o'.

Fonetik jihatdan til orqa(a,o,o',u) va til oldi (e , i) unli'larga bo'linadi.

Fonetika- nutq tovushlarini o'rganish .

Fonologiya – tovushlarning ma'noni farqlashdagi rolini

Undosh tovushlar:

Havo oqimi nutq a'zolari to'siqlaridan o'tadi.

Bo'g'in hosil qilmaydi, balki bo'g'inda unliga tayanadi.

O'zbek tilida 23 undosh mavjud : b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, y, z, ch, sh, ng, g'.

Xulosa. Boshlang'ich sinflarda unli va undosh tovushlarni o'rgatishda leksik mashqlar boshlang'ich ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'quvchining fonematik eshitishini rivojlantiradi, lug'at boyligini kengaytiradi va o'qish- yozish malakasini mustahkamlaydi.

1-sinfda mashqlar ko'roq o'yin va ko'rgazmalilikka qaratiladi.

2-sinfda tahliliy faoliyat kuchayadi.

3- sinfda fonetik tahlil va mustaqillik rivojlantiriladi.

4- sinfda bilimlar ijodiy va tadqiqiy faoliyat orqali chuqurlashtiriladi.

Metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan leksik mashqlar o'quvchining nutq madaniyatini, savodxonligini va tafakkurini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev “ 2022-2026 –yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi” to'g'risidagi farmonUz A(Ozbekiston Milliy axborot agentligi)

2.O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti.Toshkent,2021.

3.Boshlang'ich sinf Ona tili darsliklari (1-4-sinflar). Toshkent: Respublika ta'lim markazi.

4. R.Yo'ldoshev. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2018.

5. M.Ochilov. Pedagogika. Toshkent, 2020.

6.Sh. Sariyev .Boshlang'ich ta'lim metodikasi. Toshkent ,2019.

7.A.G'ulomov . O'zbek tilining fonetikasi. Toshkent , 2016.

8.N.Mahmudov. O'zbek tili nazariyasi. Toshkent 2017

9.Z.Kadirova. Savod o'rgatish metodikasi. Toshkent, 2015.